



**XOTIN-QIZLARGA NISBATAN KAMSITISHNING BARCHA
SHAKILLARINI TUGATISH ASOSLARI VA MEXANIZIMI**

Kenjaboyeva Mavluda

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

“Jinoiy odil sudlov” fakulteti 3-kurs talabasi

rajabovamuhabbat995@gmail.com

*Ayolga qilingan zulm – butun
insoniyatga qilingan zulmdir.*

John Stuart Mill

Annotatsiya: mazkur ish xotin-qizlarning kamsitilishini bartaraf qilish doirasida amalga oshirilgan mexanizmlar, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy qonunchiligimiz sohasida qabul qilingan qonun-hujjatlar hamda har qanday sohada ham ayollarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik haqida.

Ushbu ishning obyekti: ayollarga qilingan kamsitilishlarni oldini olish va ularning huquqlarini himoya qilish.

Kirish. Hozirgi paytda xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish va xotin-qizlarga qilinayotgan kamsitilishlarning barcha shakllarini tugatish aksariyat davlatlarning dolzarb muammolaridan biridir. Barcha davlatlarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish uchun turli xil mexanizmlar, himoya choralari, qonun-hujjatlari ishlab chiqqanlari bilan, ularga nisbatan tazyiqlar bo'layotgani hech birimizga sir emas. Ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan o'rin olayotgan videoroliklarning ko'p qismi ayollarning oilaviy zo'ravonlikka uchraganligi, ularga nisbatan jismoniy va ruhiy tazyiqlar o'tkazilayotganligi, ishda, o'qishda va hatto oilada gender tengligining mavjud emasligi haqida. Statistikalarga qaraganda, Yevropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiyada ham ayollarning huquqlari poymol bo'lishi, oilaviy zo'ravonlik, harassment juda keng tarqalgan.⁸¹ Shuningdek, xotin – qizlarning erkaklarga nisbatan davlat organlarida ishlashda, ko'plab davlatlardagi ota-onalar tomonidan qizlarga nisbatan o'g'il bolalarga oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun sharoit yaratilishi va harassmentning boshqa shakllari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuning uchun davlatlararo xotin-qizlarning mana shunday kamsitilishlarini oldini olish va ularga barham berish bo'yicha ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilinmoqda. Bulardan biri, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan **1979-yil 18-dekabrda** qabul qilingan “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya” hisoblanadi. Bu konvensiyaning qabul qilinishidan maqsad ayollarning faoliyati va hayoti davomida ularni tahqirlashni tag-tomiri bilan yo'q qilish bo'lib, xalqaro huquq sohasida

⁸¹ Inson huquqlari. Yuldasheva. G, Gafurova. N. 2023





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari rivojlanishida muhim voqealardan biri bo'ldi.⁸² Shu bilan birga, konvensiyada gender tengligi, xotin-qizlarni kamsituvchi mavjud qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish haqida, shuningdek, jamiyatda ularni tahqirlovchi barcha munosabatlarga qarshi qaratilgan normalar belgilanib qo'yilgan.

Xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish uchun qabul qilingan xalqaro hujjatlar. Yuqorida aytib o'tilganidek, "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi" konvensiya qabul qilingan. Ushbu konvensiya qabul qilingan so'ng qariyb 20 yil o'tib konvensiyaning Fakultativ protokoli ishlab chiqilib, **2002-yil 22-dekabrda** qabul qilindi. Shu bilan birga **1993- yil Venada** bo'lib o'tgan inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi Deklaratsiya va Harakatlar dasturida insoniyat tarixida birinchi marta "inson, ayollar va qizlar huquqlari insonning umumiy huquqlarining ajralmas, tarkibiy va bo'linmas qismi ekanligini e'lon qildi, shuningdek, jinsiga qarab kamsitishning barcha ko'rinishiga barham berish xalqaro jamoatchilikning birinchi darajali maqsadlari hisoblanadi".

Tenglik va kamsitilmaslik - **1945-yilda** qabul qilingan BMT nizomining asosiy tamoyillaridandir. Ayollar huquqlari- inson huquqlari bo'lganligi sababli ayollar barcha inson huquqlariga ega va ulardan foydalanadi. Shu ma'noda gender tenglik BMT ning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, jinsiy kamsitish deyarli barcha inson huquqlari to'g'risidagi shartnomalarda ta'qiqlangan.⁸³

Inson huquqlari bo'yicha shartnomalarning bajarilishi ustidan nazorat "shartnomalarga rioya erish ustida nazorat qilish organi" sifatida ma'lum bo'lgan qo'mitalar tomonidan amalga oshiriladi. Inson huquqlarini, shuningdek, ayollar huquqlarini shakllantirishda asosiy rol BMT konvension organlariga tegishli. Xotin – qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning **11-moddasiga ko'ra**, "xotin-qizlarning ish bilan band bo'lish sohasidagi huquqlari kamsitilishini bartaraf etish, ayni paytda, erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligini ta'minlash maqsadida ishtirokchi davlatlar barcha tegishli choralarni, jumladan, quyidagi huquqlarni ta'minlash choralari ko'radilar:

- 1) Mehnat qilish huquqi
- 2) Ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish
- 3) Kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va ish bilan band etish kafolatiga ega bo'lish⁸⁴

Ushbu konvensiyadan bilishimiz mumkinki, xotin-qizlarning mehnat sohasida kamsitilishiga hech qanday tarzda yo'l qo'yilmaydi. Xotin-qizlarning har qanday sohada huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining buzilishi, ayollarning erkaklar bilan birgalikda mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohada birdek ishtirok etishiga

⁸² Inson huquqlari. Yuldasheva. G, Gafurova. N. 2023

⁸³ <http://nhrc.uz/oz/menu/hotin-izlar-uulari>

⁸⁴ Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yo'l qo'ymaslik, xotin-qizlarning o'z davlatlarida imkoniyatlarini ko'rsatishini yanada qiyinlashtirish inson huquqlarining buzilishidan darak beradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida BMT tomonidan qabul qilingan xotin-qizlar kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi xalqaro shartnomalarni ko'plab davlatlar qabul qilgan. Xalqaro shartnomalar orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ham yaqqol misol bo'la oladi, ushbu deklaratsiyaning muqaddimasidayoq "ayollar va erkaklarning teng huquqligini e'tirof etib" degan jumlaning o'ziyoq deklaratsiya ayollar huquqlarini himoya qilishidan darak beradi.

Xotin-qizlarni nafaqat mehnat sohasidagi balki, siyosiy sohada ham kamsitilishlarning oldini olish uchun BMT "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi" konvensiya qabul qilgan. Mazkur konvensiyaning 1-moddasida shunday norma mavjud, "Ayollar barcha saylovlarda, hech qanday kamsitilishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda ovoz berish huquqiga ega". Mazkur konvensiyaning **2-moddasida** esa "ayollar erkaklar bilan teng sharoitlarda saylanish huquqiga ega" degan normasi mustahkamlangan.⁸⁵ Demak, davlatning siyosiy sohalarida ham xotin-qizlarning huquqlari cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi, shunday bo'lsa xalqaro huquq subyektlariga nisbatan xalqaro darajadagi javobgarlik kelib chiqishi mumkin.


Pekin deklaratsiyasi va harakatlar platformasi. 1995- yil BMT ning ayollar ahvoli bo'yicha IV Umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin Harakatlar Platformasi muhim o'rin tutadi. Konferensiya bir ovozdan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasida 12 yo'nalishdagi alohida sohalarga ahamiyat berildi. Uning muqaddimasi va 12 bo'limi ayollar huquqlari bo'yicha ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha strategiyalar, siyosat tadqiq etilgan dastur hisoblanadi. Bu sohalarda quyidagi maxsus me'yorlar qabul qilinishi ta'kidlanadi:

- Ayollar va qashshoqlik
- Ta'lim va ayollarning kasbiy tayyorgarligi
- Ayollar va sog'liqni saqlash
- Ayollarga nisbatan zo'ravonliklar
- Ayollar va inson huquqlari
- Ayollar va iqtisod
- Ayollarning boshqaruv organlarida va qaror qabul qilishdagi ishtiroki
- Qurolli mojarolar davrida ayollar
- Qizlar⁸⁶

Ushbu qabul qilingan dastur ayollarning jamiyat hayotiga kirishi hamda davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda ham ularning roli oshishi uchun xizmat qiladi. Umuman olib aytganda, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi ayollar huquqlarini himoya qilishda va oiladagi, jamiyatdagi ularga nisbatan qilinayotgan zo'ravonliklarga barham berishda, shuningdek, ayollar va qizlarning ta'lim olishi, gender

⁸⁵ Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya

⁸⁶ Inson huquqlari. Mo'minov.A 2013





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tengligi, mehnat sohasida erkaklar bilan bir xil munosabatda bo'lish kabi muammolar uchun alohida bir tizim yaratdi desak bo'ladi. Chunki, yuqorida ko'rib turganimizdek, ayollar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab mavzular ushbu platformadan o'rin olgan. Ayniqsa boshqaruv organida ayollar mavzusi chindan ham juda muhim. Bilamizki, davlatning ko'plab boshqaruv organlarida rahbar lavozimlarda ayollarga qaraganda erkaklarga ko'zimiz tushadi. Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi ayollarni boshqaruv organlariga jalb qilishni o'z oldiga maqsad qilib olganligi ehtimoldan yiroq emas. Ushbu dastur xalqaro darajada ko'plab natijalarga erishdi. Jahonning bir qancha mamlakatlarida ijobiy sa'y- harakatlar yo'li bilan siyosiy jarayonlarda ayollarning ishtirokini kengaytirishning muvaffaqiyatli strategiyasi ishlab chiqilgan. Kvotalash, proporsional vakillik, siyosiy partiyalarda ayollar maqomini mustahkamlash choralari natijasida xotin- qizlarning davlat boshqaruvidagi foizlar va ko'rsatkichlar soni ortdi. Jumladan, **1995-yilda** ayollarning parlamentdagi o'ri 11% ni tashkil etardi, **2024 –yilga** kelib esa bu ko'rsatkich 26% ga yetdi. Bundan tashqari ko'p davlatlarda prezident yoki vazir lavozimlariga ayollar saylandi, masalan, **Angela Merkel** Germaniya davlati hukumatining boshlig'i, **Jacinda Ardern** Yangi Zelandiyaning bosh vaziri hisoblanadi. Bundan tashqari, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, **1995-yildan** buyon onalar o'limi 38% ga kamaygan.

Qo'shimcha ma'umot sifatida aytish joizki, **Xotin – qizlarga nisbatan kamsitilishlarni tugatish bo'yicha qo'mita** ham mavjud. Ushbu qo'mita "Xotin-qizlarning kamsitilishlariga barham berish to'g'risidagi" konvensiyaning **17-moddasiga** muvofiq tuzilgan. Ushbu qo'mitaning asosiy vazifasi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirilishini nazorat etishdan iborat.⁸⁷

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar. O'zbekiston Respublikasida ayollar huquqlari va ularning manfaatlarini himoya qilishga hamda ularni kamsituvchi har qanday hollarga chek qo'yishga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa, ularning jamiyatdagi rolini oshirish va huquqlaridan har qanday tarzda foydalanish uchun shart-sharoitlarning mavjudligini davlatimiz mustaqillikka erishganining ilk davrlaridayoq buni isbotlagan, ya'ni **1999-yilning "Ayollar yili"** deb e'lon qilinishi va butun boshli yilning ayollarga va qizlarga qaratilganligi buning yaqqol misolidir. Ayollar kamsitilishining oldini olish va ularga bo'layotgan tazyiqlarning kuchayib bormasligi uchun esa **1995- yil 6-mayda BMTning "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi"** konvensiyaga qo'shildi. Shuningdek, "Onalikni muxofaza qilish to'g'risida" va "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitish to'g'risidagi" konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan.⁸⁸ Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qonunchiligida ayollarni har qanday sohada kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik haqida bir qancha normalarni mustahkamlab

⁸⁷ Inson huquqlari. Mo'minov. A 2013.

⁸⁸ Inson huquqlari M'minov.A 2013.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qo'ygan. Konstitutsiyaning **19-moddasi 2-qismida**, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar"⁸⁹ degan norma mavjud. Bu moddadan ko'rishimiz mumkinki, gender tengligi mamlakatimizda konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Albatta, bosh qomusimiz birgina modda bilan cheklanib qolmay xotin-qizlarni mehnat sohasidagi kamsitilishlarini yo'q qilish maqsadida alohida modda ajratib qo'ygan. "Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish yoki ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish ta'qiqlandi",- deb yozilgan konstitutsiyamizning **42-moddasi 3-qismida**.⁹⁰(mehnat sohasidagi ayollarga berilgan huquqlar va imtiyozlarning ko'pchili mehnat kodeksidan o'rin olgan) Mamlakatimizda "jins bo'yicha bevosita kamsitish" va "jins bo'yicha bilvosita kamsitish" tushunchalariga ilk bor O'zbekiston Respublikasining **2019-yil 2-sentabrda** qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkakalar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi" qonunida ta'rif berildi. Shuningdek, Oliy Majlis Senati Raisi rahbarligida gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tuzildi.⁹¹ Yaqin o'tmishda, ya'ni **2023 yil 11-sentabrda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030 strategiyasida" ham 1.3 yo'nalishi 25-maqsadida Xotin – qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash bo'yicha bir necha maqsadlar aytib o'tilgan.⁹²

Ayollar huquqlari buzilishi bo'yicha keys. 2012- yil 3-aprel oyida Malika Abdullayeva ismli ayol yirik marketing agentligida loyiha menejeri lavozimiga ariza topshirgan edi. U yetti yillik tajribaga ega bo'lib, sohaga oid sertifikatlarga ega edi. Suhbat jarayonida Malika Abdullayeva ish bo'yicha ko'plab narsalarga tayyor ekanligi haqida aytib o'tgan. Agentlik Abdullayevaga bir hafta ichida ishga qabul qilingan yoki qilinmaganligi haqida xodimlar tomonidan xabardor qilinishi aytilgan. 11-aprel kuni xodimlar tomonidan Abdullayeva ishga qabul qilingani haqida xabardor qilindi, biroq 1 oy o'tgandan so'ng agentlik direktori M.Abdullayevaning homilador ekanligini sezib qolgandan keyin unga nisbatan ish bo'yicha cheklovlar bo'ldi. Jumladan, ish haqining pasayishi va majlislarda uning qarorlari inobatga olinmasligi kabi. Va nihoyat iyun oyida agentlik rahbari M.Abdullayevani ogohlantirmasdan uning o'rniga boshqa D. Shavkatov ismli shaxsni ishga olganligini aytdi. Bundan nozori bo'lgan Abdullayeva shikoyat qilganida agentlik rahbari uni homilador ekanligini aytib ariza yozishini talab qilgan. Shundan so'ng Abdullayeva iyul oyida sudga murojaat qiladi va o'z huquqlari tiklanishini so'raydi. Garchi milliy sud tizmi Abdullayeva foydasiga qaror chiqargan va yetkazilgan ziyonni bartaraf qilib bergan hamda ish joyida o'z o'rnini saqlab qolgan bo'lsa ham agentlik rahbari boshchiligidagi unga nisbatan tazyiqlar bo'ladi. Boshqa erkak

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi

⁹¹ Inson huquqlari. Yusupova.S 2024.

⁹² <http://nhrc.uz/oz/menu/hotin-izlar-uulari>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hamkasblariga nisbatan kamroq maosh olishi, kompaniya majlislarida uning fikri inobatga olinmasligi va shu kabilar. Oqibatda, ushbu holat yuzasidan yana sudga murojaat qilgan Abdullayeva bu safar qo'liga sud tomonidan dalillar yetarli bo'lmagani sababli ish beruvchi foydasiga chiqarilgan qarorni oladi. Sud instansiyalarining barchasi ishni rad qiladi. Bundan tashqari Malika Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmanga ham murojaat qiladi, ammo natija bermaydi. Shundan so'ng, Abdullayeva BMT Ayollar huquqlari bo'yicha qo'mita, ya'ni **CEDAW ga va Xalqaro Mehnat Tashkilotiga** murojaat qiladi. Qo'mita mazkur ishni batafsil ko'rib chiqqandan so'ng gender tengligining buzilishi deb topadi va kompaniyaga M.Abdullayevaning huquqlari tiklanib berilishi va ish davomida qolgan hamkasblari bilan teng miqdorda olmagan maoshi to'lab berilish majburiyati yuklaydi.

Xulosa. Aksariyat davlatlarda xotin-qizlarning kamsitilishi va gender tengligining buzilish holatlarini ko'p ko'ramiz. Ayniqsa, ishga qabul qilishda, ya'ni mehnat sohasida bunday holatlar te-tez uchrayib turadi. Albatta, milliy qonunchilikda va xalqaro standartlarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'plab chora – tadbirlar ko'rilmogda, lekin shunga qaramay bir necha sohalarida xotin-qizlar o'zini kamsitilgandek his qilish holatlari ham yo'q emas. Bu shundan darak beradiki, ayollar xalqaro darajada ximoya vositalariga murojaat qilishga majbur bo'lyaptimi, demak, milliy qonunchilikda ayrim kamchiliklar mavjud yoki sud-huquq tizimini yanada isloh qilish talab etiladi. Shunday holatlardan so'ng biz xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha takliflar berishimiz mumkin. Birinchi navbatda jamoatchilik ongini o'zgartirish kerak, ya'ni ish beruvchi ayol homilador yoki ayol aynan ayol bo'lganligi uchun uning miyasiga birinchi navbatda “erkak jinsli shaxsni ishga olish yaxshiroq” qabilidagi gap kelmasligi kerak, balki uning tajribasi yoki ishga nisbatan mas'uliyatsizligi uchun va boshqa asosli dalillar yuzasidangina boshqa shaxsni ishga olishi gender tengligining yoki boshqa huquqlarning buzilishiga olib kelmaydi.

Umuman olib aytganda, **Simone De Beauvoir aytganidek**, “Ayolga faqat jins sifatida emas, balki inson sifatida ham erkinlik berilishi kerak”, ya'ni inson huquqlari haqida gap ketganda ularni jinsga ajratib o'tirishning keragi yo'q, bu huquqmi, demak, u muhofaza qilinishi va hamma tomonidan tan olinishi kerak. Zero, har qanday sohada ayolga jins sifatida qarab ajratish bu jamiyaning saviyasi past ekanligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inson huquqlari. Yuldasheva. G, Gafurova. N. 2023
2. Inson huquqlari. Mo'minov. A 2013
3. Inson huquqlari. Yusupova. S 2024.
4. <http://nhrc.uz/oz/menu/hotin-izlar-uulari>
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. “Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi” konvensiya
7. “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi” konvensiya

